UDK 37.048.4:159.9

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA 9-SINF O‘QUVCHILARINI KASBGA TAYYORLASHDA NIZOLI VAZIYATLARGA PSIXOLOGIK YONDASHUVNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK OMILLARI

Alibekov Sherali Aybekovich,
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi rivojlanayotgan hozirgi davrda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish masalasi mehnat munosabatlarini samarali tashkil etishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’limning 9-sinf bosqichida o‘quvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatiga oid tasavvurlarini shakllantirish, uning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash hamda mustaqil kasbiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasb tanlash jarayonida o‘quvchida «Qaysi kasbni tanlash kerak?», «Mening qobiliyatlarim qaysi kasbga mos?», «Ota-onamning xohishiga amal qilaymi yoki o‘z qiziqishlarimni ustun qo‘yaymi?» kabi savollar yuzaga kelishi tabiiy. Bundan tashqari, zamonaviy kasblarning ko‘payishi, mehnat bozoridagi o‘zgarishlar, ayrim kasblarga talabning ortishi yoki kamayishi ham o‘quvchining kasbiy tanloviga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli kasbga yo‘naltirish jarayonida nafaqat kasblar haqida axborot berish, balki kasbiy tanlov bilan bog‘liq nizoli va muammoli vaziyatlarni psixologik jihatdan to‘g‘ri hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish ham zarur.

9-sinf o‘quvchilarida kasbiy tayyorgarlikni quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlar asosida tashkil etish mumkin: kasbiy motivatsiya + o‘zini o‘zi anglash + psixologik barqarorlik + kommunikativ kompetentlik + muammoli vaziyatda qaror qabul qilish + refleksiya = kasbiy tayyorgarlik. Mazkur komponentlarning uyg‘unligi o‘quvchining kelajakdagi kasbini ongli ravishda tanlashi, kasbiy muhitda yuzaga keladigan ziddiyatlarni tushunishi va ularni konstruktiv tarzda hal qilishiga zamin yaratadi.

Integrativ yondashuv o‘quvchining kasbiy tayyorgarligini faqatgina muayyan kasbga oid bilimlar bilan cheklab qo‘ymasdan, uning shaxsiy, ijtimoiy-psixologik va kommunikativ kompetensiyalarini ham rivojlantirishni nazarda tutadi. Bunday yondashuvda kasbga yo‘naltirish jarayoni psixologiya, pedagogika, kasb etikasi, kommunikatsiya va amaliy faoliyat elementlarining o‘zaro uyg‘unligi asosida tashkil etiladi.

Kasbiy faoliyatning deyarli barcha sohalarida turli shakldagi nizoli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, shifokor va bemor, o‘qituvchi va o‘quvchi, rahbar va xodim, sotuvchi va mijoz, muhandis va ishchi o‘rtasidagi munosabatlarda manfaatlar, qarashlar yoki ehtiyojlarning mos kelmasligi nizoga sabab bo‘lishi mumkin. Shu

nuqtayi nazardan, maktab davridayoq o‘quvchilarda nizoli vaziyatlarni tahlil qilish, suhbatdoshni tinglash, hissiy holatni boshqarish va maqbul yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Kasbiy motivatsiyani shakllantirishda o‘quvchining tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishi bilan bir qatorda, ushbu kasbning mazmuni, mas’uliyati va kasbiy faoliyat jarayonida uchrashi mumkin bo‘lgan muammolar haqida real tasavvurga ega bo‘lishi muhim. Masalan, tibbiyot kasbini tanlayotgan o‘quvchi shifokor faoliyatini faqat bemorlarni davolash bilan bog‘lamasdan, kasalliklarning oldini olish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, murakkab vaziyatlarda tezkor va mas’uliyatli qaror qabul qilish, bemor va uning yaqinlari bilan samarali muloqot qilish kabi jihatlar bilan birgalikda tasavvur qilishi lozim. Shu orqali kasbga nisbatan realistik va mas’uliyatli munosabat shakllanadi.

Kasbiy vaziyatlarni o‘quv mashg‘ulotlariga kiritishda keys-stadi metodidan foydalanish samarali vositalardan biri hisoblanadi. Keys metodi o‘quvchilarga real yoki shartli kasbiy vaziyatni tahlil qilish, nizoning sabablarini aniqlash, turli tomonlarning pozitsiyasini baholash va konstruktiv yechim ishlab chiqish imkonini beradi.

Masalan, shifokor kasbiga oid quyidagi vaziyatni ko‘rib chiqish mumkin. Shifokor bemorga davolanish tartibiga qat’iy rioya qilish zarurligini tushuntiradi. Bemor esa internet va boshqa manbalardan o‘qigan ma’lumotlariga asoslanib, shifokorning tavsiyalariga shubha bildiradi. Mazkur vaziyatdagi asosiy nizo sababi ishonchsizlik va turli qarashlarning to‘qnashuvidir. O‘quvchilarga shifokor bunday vaziyatda qanday munosabat bildirishi, bemor bilan bahslashish o‘rniga qanday muloqot usulidan foydalanishi va nizoni qanday konstruktiv tarzda hal qilishi mumkinligi haqida savollar beriladi. Kutiladigan yechim shundan iboratki, shifokor bemorning fikrini tinglashi, uning xavotirlarini tushunishi va tibbiy tavsiyalarni sodda hamda tushunarli dalillar asosida izohlashi kerak.

O‘qituvchi kasbiga oid keysda esa o‘qituvchi o‘quvchiga past baho qo‘yadi. O‘quvchi o‘zini yaxshi tayyorlangan deb hisoblab, bahoni adolatsiz deb biladi va dars jarayonida o‘qituvchi bilan tortishib qoladi. Bu vaziyatda nizo baholash natijasi bo‘yicha kelishmovchilikdan kelib chiqadi. O‘quvchilarga o‘qituvchi qanday yo‘l tutishi, o‘quvchining e’tirozini tinglash zarurmi va vaziyatda hissiyotlarni qanday boshqarish mumkinligi haqida savollar beriladi. Konstruktiv yechim sifatida o‘qituvchining o‘quvchini omma oldida tanqid qilmasligi, baholash mezonlarini tushuntirishi, o‘quvchining fikrini tinglashi va zarur hollarda bajarilgan ishni birgalikda qayta ko‘rib chiqishi taklif etiladi.

Kasbiy tanlov bilan bog‘liq nizolarni modellashtirishda «Men kim bo‘laman?» mavzusidagi keysdan ham foydalanish mumkin. Masalan, 9-sinf o‘quvchisi Aziz kompyuter texnologiyalariga katta qiziqish bildiradi va dasturchi bo‘lishni xohlaydi. Biroq otasi uning yurist bo‘lishini istaydi, onasi esa shifokorlik kasbini ma’qullaydi. Sinfdoshlari ham dasturchilik oson kasb emasligini aytib, uning fikrini o‘zgartirishga

harakat qiladi. Natijada Aziz qaysi kasbni tanlashni bilmay qoladi va o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchi pasayadi.

Mazkur vaziyatda bir vaqtning o‘zida ichki psixologik nizo, oilaviy qarashlar bilan bog‘liq kelishmovchilik, tengdoshlar ta’siri va kasbiy tanlovdagi noaniqlik namoyon bo‘ladi. Dars jarayonida o‘quvchilarni guruhlarga ajratib, vaziyatni turli nuqtayi nazardan tahlil qilish mumkin. Bir guruh Azizning pozitsiyasini himoya qiladi, ikkinchi guruh ota-onaning nuqtayi nazarini asoslaydi, uchinchi guruh psixolog rolida vaziyatni tahlil qiladi, boshqa guruh esa murosaga asoslangan alternativ yechimlarni ishlab chiqadi. Bunday mashg‘ulot o‘quvchilarga bir vaziyatga turli nuqtayi nazardan qarash va qarama-qarshi fikrlarni tushunish imkonini beradi.

Kasbiy nizolarni tahlil qilishda SWOT-tahlil metodidan ham foydalanish mumkin. Mazkur metod yordamida o‘quvchilar nizoli vaziyatning kuchli va kuchsiz tomonlarini, mavjud imkoniyatlarni hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni aniqlaydilar. Bunda asosiy maqsad kimning haq yoki nohaq ekanligini aniqlash emas, balki muammoning sabablarini tizimli ravishda tahlil qilish va konstruktiv yechim ishlab chiqishdan iborat.

Masalan, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ziddiyatni tahlil qilishda o‘qituvchining tajribasi, o‘quvchining bilim olishga qiziqishi va o‘zaro muloqot imkoniyati kuchli tomonlar sifatida qaralishi mumkin. O‘quvchining intizomi pastligi, o‘qituvchining haddan tashqari qattiqqo‘lligi yoki fikrni bir tomonlama qabul qilish esa nizoni kuchaytiruvchi omillar sifatida baholanadi. Individual yondashuv, psixologik trening va ochiq muloqot vaziyatni yaxshilash imkoniyatlarini yaratadi. Agar nizo vaqtida hal qilinmasa, o‘quvchining darsga qiziqishi pasayishi, ishonchsizlik va konfliktning kuchayishi kabi xavflar yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatda muammoni shaxsga emas, uning xatti-harakatiga qaratish, o‘quvchining fikrini tinglash, umumiy qoidalarni belgilash va ijobiy xatti-harakatlarni rag‘batlantirish maqsadga muvofiq.

Rahbar va xodim o‘rtasidagi ziddiyatni tahlil qilishda rahbarning boshqaruv tajribasi, xodimning amaliy ko‘nikmalari va umumiy ish maqsadi kuchli tomonlar sifatida olinadi. Talablarning noaniqligi, rahbarning avtoritar boshqaruv uslubi yoki xodimning mas’uliyatsizligi nizoni kuchaytiruvchi omillar bo‘lishi mumkin. Maqsadlarni birgalikda belgilash, muntazam fikr-mulohaza berish va malaka oshirish nizoni konstruktiv yo‘nalishga o‘zgartirish imkonini beradi. Aks holda ish unumdorligining pasayishi, xodimning ishdan ketishi va jamoada salbiy psixologik muhit yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli talablarni aniq ifodalash, xodimning pozitsiyasini tinglash, vazifa va natija mezonlarini oldindan kelishib olish muhimdir.

Sotuvchi va mijoz o‘rtasidagi nizoli vaziyatlarda sotuvchining mahsulot haqidagi bilimi hamda mijoz ehtiyojining mavjudligi ijobiy resurs sifatida qaraladi. Noto‘g‘ri muloqot, mijoz talabini yetarlicha tushunmaslik va emotsional reaksiya esa nizoni kuchaytirishi mumkin. Mijoz ehtiyojini aniqlash, faol tinglash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali bunday vaziyatlarning oldini olish mumkin. Nizo

hal etilmasa, shikoyatlar, mijoz ishonchining yo‘qolishi va tashkilot obro‘siga salbiy ta’sir yuzaga kelishi ehtimoli mavjud. Shuning uchun avvalo mijozni tinglash, hissiyotdan ko‘ra muammoning o‘zini muhokama qilish va muqobil variantlarni taklif etish muhim.

Hamshira va bemor o‘rtasidagi munosabatlarda esa hamshiraning kasbiy ko‘nikmalari va bemorning davolanishga bo‘lgan ehtiyoji muhim resurs hisoblanadi. Bemorning xavotiri, tibbiyot xodimining charchog‘i va axborot yetishmasligi nizoni yuzaga keltirishi mumkin. Empatik muloqot, psixologik qo‘llab-quvvatlash, faol tinglash va bemorga ma’lumotni sodda tilda yetkazish bunday vaziyatlarda muhim ahamiyatga ega. Bemorning davolanishga ishonchsizligi, shikoyatlarning ko‘payishi va stressning kuchayishi kabi holatlarning oldini olish uchun bemorning savollariga sabr bilan javob berish va uning xavotirlarini inobatga olish lozim.

SWOT-tahlilni dars mashg‘ulotlarida qo‘llash muayyan izchillik asosida tashkil etilishi mumkin. Avvalo nizoli vaziyat aniqlanadi va ziddiyat kimlar o‘rtasida hamda qanday sababga ko‘ra yuzaga kelgani belgilanadi. Keyin nizoda ishtirok etayotgan tomonlarning ijobiy resurslari va kuchli jihatlari aniqlanadi. Shundan so‘ng ziddiyatni kuchaytirishi mumkin bo‘lgan psixologik va kasbiy omillar tahlil qilinadi. Keyingi bosqichda vaziyatni ijobiy tomonga o‘zgartirish imkoniyatlari belgilanadi va nizo hal etilmasa, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflar baholanadi. Yakuniy bosqichda esa barcha tomonlarning manfaatlarini hisobga olgan holda konstruktiv yechim ishlab chiqiladi.

Bunday yondashuvni «muhandis — ishchi» kasbiy vaziyatida ham ko‘rish mumkin. Muhandis ishchiga yangi texnologiya asosida topshiriq beradi. Ishchi esa mazkur usul amaliyotda samarasiz bo‘lishi mumkinligini bildiradi, biroq muhandis uning fikrini inobatga olmay, topshiriqni bajarishni talab qiladi. Natijada ziddiyat yuzaga keladi. Vaziyat tahlil qilinganda muhandisning nazariy bilimlari va ishchining amaliy tajribasi kuchli tomonlar sifatida namoyon bo‘ladi. Bir-birining fikrini yetarlicha tinglamaslik esa zaif jihat hisoblanadi. Ikki tomonning bilim va tajribasini birlashtirish nizoni hal etish imkonini beradi. Aks holda ish sifati yoki mehnat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli texnologiyani dastlab kichik hajmda sinab ko‘rish, natijani birgalikda baholash va shundan keyin yakuniy qaror qabul qilish konstruktiv yechim sifatida taklif etiladi.

Mazkur yondashuvning asosiy jihati «Kim haq?» degan savoldan ko‘ra «Muammoni birgalikda qanday hal qilish mumkin?» degan savolga e’tibor qaratilishidir. Bu esa o‘quvchilarda muammoli vaziyatga nisbatan murosali, tahliliy va mas’uliyatli munosabatni shakllantiradi.

Kasbga yo‘naltirish mashg‘ulotlarida SWOT-tahlilni keys-stadi, rolli o‘yin, psixologik trening, munozara va kasbiy vaziyatlarni modellashtirish bilan uyg‘unlashtirish mumkin. Masalan, dastlab o‘quvchilarga muayyan kasbiy vaziyat taqdim etiladi, keyin vaziyat SWOT-tahlil qilinadi, muqobil yechimlar ishlab chiqiladi, rolli o‘yin orqali vaziyat amaliy tarzda namoyish etiladi va yakunda refleksiya

o‘tkaziladi. Bunday ketma-ketlik o‘quvchining nazariy bilimni amaliy vaziyat bilan bog‘lashiga yordam beradi.

Mazkur metodik yondashuv o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatni tahlil qilish, empatiya, muloqot madaniyati, qaror qabul qilish, kasbiy mas’uliyat va nizolarni konstruktiv hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘quvchi o‘zining kuchli va zaif tomonlarini anglash, kasbiy qiziqishlarini aniqlash hamda tanlagan kasbining real talablari haqida tasavvur hosil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

9-sinf o‘quvchilarini kasbga tayyorlash jarayonida integrativ yondashuv asosida nizoli vaziyatlarga psixologik munosabatni shakllantirish kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Kasb tanlash faqat muayyan kasb haqidagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmay, o‘quvchining o‘zini o‘zi anglashi, kasbiy motivatsiyasi, psixologik barqarorligi, kommunikativ kompetentligi va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olish qobiliyatini ham qamrab olishi lozim.

Keys-stadi, SWOT-tahlil, rolli o‘yin, psixologik trening, munozara va kasbiy vaziyatlarni modellashtirish kabi metodlarning integratsiyasi o‘quvchilarga kasbiy faoliyatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarni oldindan tasavvur qilish va ularni konstruktiv hal etish usullarini o‘rganish imkonini beradi. Bunda o‘quvchilarga tayyor yechimni berishdan ko‘ra, muammoning sabablarini aniqlash, turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilish va mustaqil ravishda maqbul yechim ishlab chiqish imkoniyatini yaratish muhimdir.

Shuningdek, kasbga yo‘naltirish jarayonida kasbiy etika, muloqot madaniyati, o‘zaro hurmat, mas’uliyat, empatiya va refleksiya kabi psixologik omillarga muntazam e’tibor qaratish zarur. Bunday yondashuv o‘quvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatga moslashuvini yengillashtirish, kasbiy motivatsiyasini mustahkamlash va nizoli vaziyatlarda konstruktiv xulq-atvorni shakllantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, «kasbiy vaziyat → SWOT-tahlil → muqobil yechim → rolli o‘yin → refleksiya» ketma-ketligi 9-sinf o‘quvchilarini kasbga tayyorlashda integrativ metodik vosita sifatida qo‘llanishi mumkin. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilarning kasbiy tanlovga tayyorgarligi, muloqot ko‘nikmalari, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyati va kasbiy mas’uliyatini izchil rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Davletshin M.G. Yosh davrlar va pedagogik psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.